

**MAKTABLARDA QORAQALPOQ TILINI O'QITISHDA
KOMPETENSIYALAR TURKUMINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR
MASALALARI XUSUSIDA**

Kudiyarova Venera Kadirbaevna

Nukus tumani 29-maktab direktori

kudiyarovavenera@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarida ona tilini o'qitishda kompetensiyalar majmuini shakllantirish masalalari muhokama qilingan. Ushbu masalalarning yechimi orqali ta'lif jarayonida qoraqalpoq tilini o'qitishda kompetensiyalarni shakllantirishning tadqiq qilinishi, usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq tilini o'qitish, kompetensiya, model, metodika, usullar, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik, ta'lif.

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы формирования комплекса компетенций в обучении родному языку в школах с каракалпакским языком обучения. Речь идет об исследовании, методах формирования компетенций в обучении каракалпакскому языку в образовательном процессе посредством решения этих вопросов.

Ключевые слова: обучение каракалпакскому языку, компетенция, модель, методика, методы, этапы, подготовка, универсальность, образование.

Abstract. This article discusses the issues of forming a set of competencies in teaching the native language in schools with the Karakalpak language of instruction. We are talking about the research, methods of forming competencies in teaching the Karakalpak language in the educational process through solving these issues.

Keywords: teaching the Karakalpak language, competence, model, methodology, methods, stages, preparation, universality, education.

Til ta'lmini rivojalntirishga, nutqiy kompetentsiyalarni takomillashtirishga munosib hissa qo'shgan metodist olimlarimiz B.To'xliev, M.Shamsieva, T.Ziyodovalarning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasida yoritilgan "O'zbek tilining izchil kursini o'rganish" qismida quyidagi uchlik "til, me'yor, nutq" haqida ta'riflar keltiriladi. "So'zlash, eshitish (ko'rish), o'qish, yozish vositasida fikr tushuniladi. Bularning barchasi **nutq** deyilib, u yozma va og'zaki ko'rinishlarda bo'ladi. Nutqning o'ziga xos vositalari, birliklari, ularni ishlatish qonun-qoidalari va me'yorlari bor" [1;4-b.]. Ona tili darslarida mana shu uchlikka e'tibor berish o'quvchilarning fikrini izchil o'stirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

M.N.Skatkin nutqni fikrlashni rivojlantiruvchi vosita ekanligini metodologik adabiyotlarda tadqiq etdi [2;124-b.]. L.V.Sherba nutqni rivojlantirish uchun o'quvchilarning bilish darajasi bo'lgan eng oliv daraja tafakkur va nutq ya'ni fikrlash qobiliyatini tarbiyalash zarurligi haqidagi mulohazalarini bildiradi [3;248-b.]. Olimlarning bilish darajalari orqali nutq fikrlashni rivojlantiruvchi vosita ekanligi va nutq o'stirishda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini tarbiyalash zarurligi haqidagi mulohazalari juda ham o'rinni, lekin qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarning fikrlash jarayonida nutq texnikasiga amal qilishini qoraqalpoq tili fani o'qituvchilari nazorat qilishi lozim. Binobarin, qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar lisoniy va lingvodidaktik qoidalarga va adabiy til me'yorlariga asoslanib, mantiqiy yondashib to'g'rilanadi.

H.Nematovning "O'zbek tili tarixiy fonetikasi" kitobida nutq shakllarini rivojlantirishda qo'llaniladigan vositalar haqida mulohaza yuritilgan. "Nutq – bu tilning va undagi belgilarning barcha qo'llanilish holatlarini qamrab oladi. Yozma shaklda o'qib berish uchun tayyorlangan roman, qissa, hikoya va h.k. nutqqa tegishlidir" [4;19-b.]. Nutqning rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi bu vositalar o'quvchining aqliy kamol topishi bilan birga, mustaqil fikrlashiga va ijodiy yondashuv asosida fikrini erkin bayon qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aytilgan.

Psixolog N.I.Jinkinning ta'kidlashicha, "Nutq – intellektni rivojlantiruvchi kanal. Til qancha erta o'zlashtirilsa, bilimlar shuncha oson va to'liq o'zlashtiriladi" [5;59-b.]. Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar turlicha talqin qilingan. Bizning fikrimizcha, nutqning belgilangan qoida va talab asosida rivojlanishi bilimlar zaxirasining paydo bo'lishida lingvodidaktik faoliyatini namoyon qiladi. Fikrlar xilma-xilligi bilimlar vositasida bosqichma-bosqich shakllanadi. Rus olimi N.I.Jinkin botiniy nutqdagi fikrning so'zga aylanishini "tafakkur grammatikasining so'z grammatikasiga aylanishi" deb ta'riflayd [5;10-b.]. Darhaqiqat, fikr sayqallanib etilgan tafakkur bilan tashqi nutqqa aylanadi.

Professorlar A.G'ulomov va H.Nematovlarning "Ona tili ta'limi mazmuni Ona tili o'qituvchilatri uchun o'quv [6;23-b.] qo'llanmasida o'quvchilarni sinfdan tashqari jarayonlarda, to'garaklarda, ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lган yig'inlarda adabiy tilda gapirish ta'kidlanadi. O'quvchilar oila davrasida milliy tilda gapirishi, shevaga xos so'zlarni erkin ishlatishi tabiiy hol. Ular darsdan keyin tashkil qilinadigan to'garaklarda adabiy tilda gapiradilar, fikrini adabiy tilda tushuntirib, ba'zi o'rnlarda izohlab etkazadi. Biroq bayramlarda, tadbirlarda ham turli hududdan kelgan va boshqa millat vakillari ishtirokchilari qatnashayotganligini inobatga olib, adabiy tilda gapirishlari to'g'ri deb o'ylaymiz. Shuning uchunona tili darslarida bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishga, shular negizida kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish kerak.

O.B.Akulova bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'quvchining o'rgangan bilimlarini tanish vaziyatlarda qo'llay olishi yoki o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; "Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qobilyatlari majmui bo'lib, bolalarning o'ziga xos rivojlanish sohalarini birlashtiruvchi tushunchadir. Bu kompetensiyalar bolalarning ma'nан mukammal shakllanishi va intellektual rivojlanishi uchun asos bo'ladi" [7;34-b.]. M.E.Axmedova Kompetensiya – ta'limda muayyan bir sohada sermahsul faoliyatini mustaqil olib borishi uchun

oldindan tayyorlanadigan zaruriy malakaviy va metodik talablar yig'indisidir deydi. "Kompetensiya" termini fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo'llangan. Inglizcha "sompetense" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqr bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi [8;62-63b.]. Kompetensiya so'zining ma'nosiga qator izohlar va ta'riflar berilgan, tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqlaman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba [9;73-b.]. Kompetensiya – (lot, compete – munosibman, loyiqlaman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar, shaxsning biron bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darjasasi [9;74-b.].

Metodist olimlarv N.Sh.Turdiev, Yu.M.Asadov., S.N.Akbarova., D.Sh.Temirovlar tomonidan tuzilgan "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari" nomli 2015 yil nashr etilgan o'quv qo'llanmasida "kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlari: bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi, shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlari; amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi, muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati, shaxsning professi ona tili faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi; faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui, shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsiional iroda kuchi [10;8-b.] sanab o'tilgan. Kompetensiyalar egallangan bilimlar zamirida ko'nikmalar hosil qilinadi va ko'nikmalar malakaga aylanadi. Kompetensiya bilim, ko'nikma, malakalarning yuqori darjasasi, ya'ni layoqat sanaladi. Demak, kompetensiyalar ma'lum bosqichlar davomida amaliyotga tatbiq etilgan ilmlar jamlanmasidir.

Ye.Berdimuratov., Q.Pirniyazov o'rta maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi nomli kitobida tilni eng yuqori vositasi bu nutq muloqotidir u har

qanday kommunikativ vaziyatda, eng avvalo, xatosiz gapirishni anglatadi, to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri so‘zlashni madaniyat belgisi deb” [11;23] deb ta’kidlaydi. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili darslarida xatosiz gapirish, to‘g‘ri so‘zlash, fikrlash muayyan muddat davomida rivojlantirib borilgan gapirish va so‘zlash ko‘nikmalariga bog‘liq jarayon. 6-7 sinfda erishilgan bilimlar qatorida hayotiy tajribalarga asoslanilgan nazmda va nasrda yozilgan parameyalarda ham muhim aspektlari xatosiz so‘zlash va gapirishda o‘z aksini topadi. O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirishdan maqsad ulardagi so‘zlash, fikrlash, muloqot qilish, munosabat bildirish, mushohada qilish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, mustaqil ravishda matn tuzish va yozish malakalarini tizimli shakllantirish va o‘sirish, leksik va sintaktik birliklarni qo‘llashda mantiqiy yondashuvga asoslanishni o‘rgatishdan iborat. Og‘zaki nutq, ibratomuz maqol va hikoyalar o‘qish, har bir narsadan hikmat qidirish g‘oyasi yo‘g‘rilgan badiiy adabiyot namunalarini tinglash ta’sirida mahsuldor yozma nutq yaratiladi. Shuning uchun o‘qish, tinglash va yozish o‘quvchilarni bilimlarni mustahkam egallahsga va komillikka etaklovchi unsurlardir. Til ta’limida nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirish o‘quvchilarda nutqini o‘sirishga yo‘naltirilgan hamkorlikda olib boriluvchi amaliy faoliyat mahsulidir. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalar hosil bo‘lganini nazorat qilish o‘qituvchidan yuksak qobiliyat asosida intelektual bilim berishni va egallangan bilimlarni tekshirib borishni talab qiladi. O‘quvchilar nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirishda quyidagi ustuvor tamoyillarga asoslanish ta’limiy maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Ўзбек тили ўқиши методикаси / Т.: Зиёдова; ред. Т. Ниязметова. - Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010 – 240 - б.
2. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сырманюк Э.Э. Модернизация

профессионального образования: компетентностный подход. - М.: МПСИ, 2005. - 216 с.

3. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – 428 с.

4. Нематов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992 – 92 б.

5. Jinkin N.I. Rech kak provodnik informatsii. – М.: Nauka, 1982. – 159 s.

6. Фуломов А., Нематов Ҳ. Она тили таълими мазмуни: Она тили ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 23 (128) б.

7. Акулова О.В. Конструирование ситуационных задач для оценки компетентности учащихся: учебно-методическое пособие для педагогов школ. Т.2008 г.153с.

8. Axmedova M.E (hammualliflikda) Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogikaning kasbiy kompetentligi. O'quv-uslubiy qo'llanma Т.: “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi MCHJ, 2021-62-63b.(126)

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. –Т.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – (424-425-). 687-b.

10. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенсияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари Т.:Т.Н.Кори Ниёзий номидаги ЎзПФТИ, 2015. – 160 б.

11. Бердимуродов Е., Пирниязов Қ. Ўрта мактабларда қорақалпоқ тилини ўқитиш методикаси. Нукус: Билим.: 1988.:160